

MAHALLIY ASHYO VA ENERGETIK RESURSLARDAN FOYDALANIB GIBRID STRUKTURALI GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIAL HAMDA QOPLAMALARINI MEXANIK XOSSALARINI TADQIQOTLASH

Z.X.Jalolova¹, U.A.Ziyamuhamedova²

¹tayanch doktorant Andijon mashinasozlik instituti, Boburshoh
ko‘chasi 56-uy, Andijon 170119

²t.f.d.,prof Toshkent davlat transport universiteti
e-mail: zilolajalolova1108@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13353586>

Anotatsiyat: Maqolada mahalliy ashyo va energetik resurslaridan foydalanib, gibriddi strukturali geterokompozit polimer materillar olishda neft maxsulotlarini ikkilamchi qayta ishlash natijasida olingan uglerodga boy neft qoldig‘idan texnik uglerodni ajratib olish va ularni mehanik xossalarni yahshilash uchun epoksid smola asosidagi materillarda to‘diruvchi sifatida qo‘llash boyicha so‘z boradi. Reaktoplast asosidagi gibriddi materiallarni tarkibiga qo‘shilgan texnik uglerodni qoplama materialning ekspluatatsion barqarorligi tadqiqotlandi.

Kalit so‘zlar: Gibriddi struktura, karroziya, geterokompozit, to‘ldiruvchi, bog‘lovchi, mexanik xossa, miroqattiqlik, ekspluatatsiya

1 kirish

Zamonaviy gibriddi strukturali geterokompozit polimer materiallari - bu asl komponentlarning xususiyatlardan farq qiluvchi xususiyatlarning yangi kombinatsiyasiga ega bo‘lgan, lekin o‘ziga xosligini saqlaydigan gibriddi strukturali kompozitsiyalar. Polimerlarning to‘ldiruvchi moddalar bilan birikmasi, birlinchi navbatda, mexanik mustahkamligi bilan ajralib turadigan mutlaqo yangi texnologik yoki operatsion xususiyatlarga ega bolgan materiallarni olish imkonini beradi. Bunday tizimning xossalari nafaqat polimerlar va to‘ldiruvchi moddalarining xossalari, balki matritsa hajmidagi zarrachalarning tarqalish tabiatini va interfeysdagi o‘zaro ta’sir jarayonlari bilan ham belgilanadi.

2 METOD USULLARI

Hozirgi vaqtida texnologik mashinalar qismlarining mexanik yuzalarini korroziyadan himoya qilishga bag‘ishlangan ko‘plab fundamental va amaliy ishlar mavjud. Asosiy omillardan biri bu mashina qismlari ishlaydigan elektrokimyoviy agressiv muhitdir. Ushbu muammolar odatda an'anaviy ravishda an'anaviy tarkibiy tuzilish o‘rniga rangli metallar va zanglamaydigan po‘latlar yordamida hal qilinadi. Katta va murakkab konfiguratsiya qismlari uchun bu juda qimmat va xarajatlar narxini qoplama maydi. Va hozirgi kunga qadar ma’lum bo‘lgan xorijiy ishlab chiqarishning korroziyaga qarshi maxsus qoplamlarni talab qiladi va mahalliy ishlab chiqarilgan texnologik uskunalarining ekspluatatsiya xarajatlarini oqlamaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida Epoksid bog‘lovchi va modifikatsiyalangan mahalliy Angren kaolinlari asosida korroziyaga qarshi

qoplamlarni ishlab chiqish hamda mehanik xossalarni tahlil qilish uchun, Mahalliy ashylardan hamda energiya manbalaridan foydalangan holda organomineral mexanokimyoviy modifikatsiyalangan himoya qoplamlarining mehanik xossalari tahlil qilib, agressiv muhitda ishlaydigan yirik o‘lchamli texnologik mashinalarning ishchi yuzalarida foydalanish uchun taklif etiladi.

Nº	Tarkiblar	Izoh
1	Epoksid smolasi (ED-20)	Termoreaktiv bog‘lovchi ¹
2	Dibutilftalat (DBF)	Plastifikator
3	Polietilenpoliamin (PEPA)	Qotirgich
4	Angren kaolini	To‘ldiruvchi ($d \leq 20$ MMK)
5	Texnik uglerod	To‘ldiruvchi ($d \leq 20$ MMK)
6	Ipakni qayta ishlash chiqindisi (IQICH),	Sinchlovchi ($d \leq 2$ MM)

3 NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot uchun tarkiblar va ular asosida tayyorlangan namunalar yaratib olamiz(1-jadval)

1-jadval Tadqiqot uchun tanlangan material tarkiblari Karozziyaga qarshi kurash uchun olingan qoplamatmizni olishdan avval gibriddi strukturali geterokompozit materialning tarkiblarini tanlashimiz maqsadga muvofiq. Shuningdek, polimer kompozit

materialning reaktoplast bog'lovchili gibrild kompozit materialning mehanik xossalarini yaxshilash maqsadida to'ldiruvchi sifatida ishlatalayotgan Angren kaolinlarining AKF78, AKS30, AKT10 va neft chiqindisidan olingan texnik uglerodlardan foydalanib turli xil massa qismlarda tadqiqot qilindi. (2-jadval)
 2-jadval: Tadqiqot uchun tanlangan tarkiblar va ularning massa qismlari

Namuna	ED - 20 %	D BF , %	PE PA %	AK F 78, %	AK T 10, %	IQ IC H %	Texni k uglero d %
Namuna 1	100	10	10	10	6	4	1
Namuna 2	100	10	10	10	10	5	1
Namuna 3	100	10	10	15	15	10	1
Namuna 4	100	10	10	20	15	15	-

Geterokompozit materiallarning xossalari ularga qo'shilgan to'ldiruvchi moddalarning tarkibi va miqdoriga bog'liq. To'ldiruvchi zarrachalarni mehanik faollashtirish, geterokompozit materiallarda strukturalar shakllanishi va materialning nafaqat mehanik balki fizik hamda ekspluatatsion xossalarining yaxshilanishida va strukturalar aro mustahkam bog'lar xosil qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida to'ldiruvchi moddalarni miqdorini o'zgartirib, turli-tuman, hatto, oldindan belgilangan xossalari birikmalar(kompozitsiya) olish mumkin. Bunday qo'shimchalar asosan sinchlovchi, antifriksion, issiqlik o'tkazuvchan, issiqlikka bardoshli, yeyilishga bardoshli qilish vazifasini bajaradi. Karozziyaga qarshi kurash uchun olingan qoplasmamizni olishdan avval gibrild strukturali geterokompozit materialning tarkiblarini tanlashimiz maqsadga muvofiq. Shuningdek, polimer kompozit materialning reaktoplast bog'lovchili gibrild kompozit

materialning mehanik xossalari yaxshilash maqsadida to'ldiruvchi sifatida ishlatalayotgan Angren kaolinlarining AKF78, AKS30, AKT10 va neft chiqindisidan olingan texnik uglerodlardan foydalanib turli xil massa qismlarda tahlil qildik. Eng keng tarqalgan organik kukunli to'ldirovchi moddalariga texnik uglerod kiradi. Texnik uglerod tarkibidida oltingugurt, kislorod va azot atomlari mavjud bo'lib, yuqori darajada rivojlangan sirt maydoniga ega 5-150m²/g bilan bilan oksidlanishiga duchor bo'ladi. Texnik uglerod zarralarining xaqiqiy zichligi 1,76-1,95-150g/sm³.

3-jadval: Tadqiqot olib borilayotgan materiallarning mexanik xossalari

Namuna	Mikroq attiqlik Mpa	Zarba ga chida mlilik N.m	Uzilis hga chida mlilik Mpa	Uzili shda nisbiy uzelis h %	Adgezi on Mustah kamlik σ _{ad} MPa
Namuna 1	195	2.4	7	1.0	25,1
Namuna 2	216	3.4	25	2.1	33,2
Namuna 3	205	3.7	20	1.4	32,1
Namuna 4	210	3.8	25.6	1.7	28,2

3-jadvalda ko'rilib turibdiki tahlil natijalaidan biz taklif etayotgan texnik uglerodni to'ldiruvchi sifatida qo'shganimizda gibrild kompozit materialning mexanik xossasi yahwilangan.

4 XULOSA

Gibrild strukturali geterokompozit materiallarni komponentlari turlari va massa ulushlarini optimal shaklini ishlab chiqish bilan birga dastavval ishlab chiqarishdagi mavjud ekspluatatsiya sharoitini inobatga olgan holda (bosim, harorat, ishqalanish, yeyilish, mexanik zo'riqishlar va boshqalar) komponent tarkiblari belgilanishiga etibor qaratilishi muhim ekamligi ma'lum bo'ldi. Geterokompozit materiallarning to'ldiruvchilar, bog'lovchilari, sinchlovchi va boshqa xossalarni nomoyon qilivchi materiallat mahalliy ashy ova ikkilamchi materiallardan va tebiyy energetik va alternativ energiyalardan foydalanish (iqtisodiy samaradorlik) maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Ziyamukhamedova, U., Rakhmatov, E., & Nafasov, J. (2021, April). Optimization of the composition and properties of heterocomposite materials for coatings obtained

by the activation-heliotechnological method. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 1889, No. 2, p. 022056). IOP Publishing.

[2] Нафасов Ж.Х., Зиямухамедов Ж.У., Мирадуллаева Г. Б., Омонов Д. Р., Очилов Ш. Х. Математическое моделирование реологических свойств при структурообразовании гетерокомпозитных заливочных материалов и покрытий // Сб. статей 1 Международной научно-практической конференции «Молодой научный исследователь», -Ташкент, 1-2 апреля 2022г. стр.17-21. 5

[3] Зиямухамедов Ж.У., Нафасов Ж. Х., Зиямухамедова У.А., Бакиров Л.Й. Применение механохимического метода модификации при формировании защитных покрытий для применения в нефтегазовом машиностроении // 49-й Всероссийской научно-технической конференции молодых ученых, аспирантов и студентов с международным участием, посвященной 90-летию Башкирской нефти. - Уфа, 22-23 апреля 2022 г. стр. 544-548.

[4] Бакиров Л. Ю. и др. Исследование физико-механических свойств гетерокомпозитных полимерных материалов и формирующихся из них покрытий гелиотехнологическим методом // Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2022. –Т. 1. – № 6. – С. 224-230.

[5] U.A.Ziyamuxamedova, M.A.Nurdinov, L.Y.Bakirov Mashinasozlikda qo'llaniladigan polifunksional geterokompozit polimer materiallar uchun bog'lovchi to'ldiruvchilarni tanlash va asoslash // orienss. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n> (дата обращения: 05.04.

[6] “Modeling and Simulations of Polymers: A Roadmap”. Thomas E. Gartner and Arthi Jayaraman. Macromolecules 52, 755–786, 2019. (<https://pubs.acs.org/doi/pdf/10.1021/acs.macromol.8b01836>) K . Elissa, “Title of paper if known,” unpublished.